

О'СИБ KELAYOTGAN YOSH AVLODNING YURIDIK BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH VA UNI AMALDA QO'LLASHINI SHAKILLANTIRISH

Kalibaev Sultanbay Dawletbay o'g'li
Qaraqolpog'iston qishloq-xo'jaligi
va agrotexnologiyalar institutining
"Meva sovzavodchiligi maxsulotlarini
Qayta ishlash texnologiyasi.Yurisprudensiya"
yo'nalishi 2-kurs talabasi.
Qaraqolpog'iston, Nukus
Ilimiy rahbar: Zulxumar Kallibekova

Annotatsiya: Davlatimizdagi yosh avlodlarga sifatli yuridik bilim berishni taminlash, bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatish, nafaqat yosh ovladlarga balki mamlakatimizdagi har bir fuxoroga huquqi, erkinlik va majburiyatlari haqida tushintirishlarni olib borilishi va har bir oilada bitta konstitutsiya kitobi bo'lishi kerakligini tushintirish va amalda qo'llash.

Kalit so'zlar: Yuridik bilim, davlat, konstitutsiya, huquq, majburiyat, yurisprudensiya, erkinlik, majburiyat, kodeks.

Kelajakda mamlakatimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan barkamol shaxslarni yaratishda yuridik ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Mamlakatimizda yashayotgan har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini shu bilan bir qatorda o'z majburiyatlarini bilishi zarur. Shuning uchun farzandlarimizga kichkinaligidan konstitutsiya, huquq, erkinlik va majburiyat tushinchalarini o'rgatib borishimiz kerak. Masalan chet davlatlarni olib qaraydigan bo'lsak Yaponiyada har bir oilada bittadan bo'lsa ham konstitutsiya kitobini topish mumkin. Ular o'zlari uchun qonunlarni o'rganadilar va farzandlariga ham o'rgatib, tanishtirib borar ekan. Xo'sh bizda qanday? Bizning mamlakatimizda fuqarolar o'z huquqlarini va majburiyatlarini to'laqoniy biladilarmi? O'rganishga harakat qilyabdimi? Bizda yuridik bilim bo'lmasa qanaqasiga o'z huquqlarimizni talab qilishimiz mumkin? Biz eng avvalo yuridik bilimlarimizni qo'llash uchun mustahkam yuridik bilimga ega bo'lishimiz zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1) Har bir inson mustahkam yuridik bilimlarga ega bo'lishi uchun har bir oilada konstitutsiya kitoblari bo'lishi va kitob bilan yaqindan tanishishi zarur. Buni albatta faxat kattalar emas bolalarga ham o'rgatib borish kerak.

2) Har bir mahallada Konstitutsiya bo'yicha tanlovlar tez-tezdan o'tkazilib turilishi lozim.

3) Maktablarda sinf xonalariga, bolalarga va ustozlarga tegishli qonunlar yozib ilib qo'yilsa va "Konstitutsiya burchagi" yoki "Konstitutsiya xonasi" yaratilsa va bu xonada qonunlarimiz yozilgan bannerlar, bizlar bunday erkinlikka qanday erishganimiz, muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yozgan kitoblari, mamlakatimiz gerbi, bayroqlari qo'yilsa va konstitutsiya darslari slaydlar, videroliklar bilan shu xonada o'tilsa maktab o'quvchilarining qiziqishi yanada ortardi.

4) Konstitutsiya darslari boshlang'ich sinflarda haftada bir marotaba va yuqori sinflarda haftada ikki maratoba o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

5) Maktablarda, o'rta maxsus va yuqori o'quv o'rinlarda har ikki oydan konstitutsiya musobaqalari o'tkazilsa o'sib kelayotgan yosh avlodlarning bilimlari mustahkamlanib borardi.

6) Har bir tumanlarda Huquq faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkillashtirilsa bu sohaning rivojlanishi yanada tezlashardi.

Yuridik ta'lim, advokatlik amaliyotiga tayyorlash haqida so'z yuritar ekanmiz quyidagilarni aytib o'tishimiz o'rinli hisoblanadi deb o'ylaymiz. Kasbiy huquqiy bilim o'z kasbiy faoliyatini yuridik sohada amalga oshiruvchi mutaxassis uchun ham, boshqaruvchi, keng toifadagi tadbirkor uchun ham birdek zarurdir, chunki huquqiy davlatda faoliyatning barcha turlari huquqiy shaklda amalga oshirilib boriladi. Va albatta huquqshinoslik sohasi nafaqat yuridik shaxslar uchun, xalqimizning yoshu-qarisi uchun ham birdek zarur bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda chet davlatlar asosida o'zimizga kerakli hulosani olar ekanmiz xalqimizning huquq sohasi o'z majburiyatlari va erkinliklari haqida yetarlicha bilimlarga ega bo'lishi uchun oilalar, mahallalar orasida keng tushintirish ishlarini olib borish lozim deb o'ylaymiz.

Yurisprudensiyaning tobora ommalashib borishiga asoslanib, ko'plab mamlakatlar uning ahamiyatini tan oldi va huquqni zamonaviy jamiyat hayotining zarur va ajralmas sharti sifatida ko'rib chiqqa boshladi. Bundan bilishimiz mumkin huquqshinoslik sohasi hammamiz bilishimiz zarur bo'lgan soha bo'lib hisoblanadi. Huquqiy ta'lim, odatda, bir qator nazariy va amaliy maqsadlarni o'z ichiga oladi, lekin ularning hammasi bir vaqtning o'zida amalga oshirilmaydi. Turli maqsadlarga e'tibor berish davrdan davrga, joydan joyga va hatto o'qituvchidan o'qituvchiga farq qiladi. Maqsadlardan biri talabani huquqiy tushunchalar va institutlar va huquqiy fikrlashning xarakterli usullari bilan tanishtirishdir. Talabalar qonun ijodkorligi, nizolarni hal etish, advokatlik faoliyatini tartibga solish jarayonlari bilan ham tanishadilar, davlat hokimiyati va boshqaruvi tuzilmasi va sudlar faoliyatini tashkil etish, shu jumladan apellyatsiya va boshqa sudlov organlari tizimini o'rganishlari kerak.

Chet davlatlarni biri Yaponiya rivojlangan mamlakatini olib qaraydigan bo'lsak u yerda qonuniylik va insoniylik teng olib boriladi. Bu davlatda ko'cha tozalovchilari bo'lmagani bejizga emas. Bizdachi? Bizda mahsus maktablar va ko'cha

tozaligini taminlaydigan xizmatchilar bor. Bazi bir qo'shtirnoq ichidagi shaxslar o'z vatanini sevish, asrash va qadirlash tuyg'ularini afsuskiy bilmaydilar. Shu sababdan ham jamiyat va qonun birlashishi kerak. Jamiyat insonsiz mavjud bo'lmagani kabi inson ham jamiyatsiz mavjud emas. Jamiyat odamlarning o'zaro bog'liqligi, hamkorligi asosida tashkil topadi, shakillanadi, rivojlanadi. Jamiyat bugun birlashib ertaga tarqalib ketadigan uyushma emas. Bu mustahkam, bir-biriga bog'langan, doim yashash imkoniyatiga ega jamoa uyushmasidir. Jamoa esa insonlardan tashkil topadi. Demak, inson – jamiyat asoschisi. Jamiyatni insonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odamlar qadimdan, ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlaboq o'z xulqi, yurish-turish tartibini shakillantirib borgan. Odamlarning birinchi munosabatlari tartib, axloq qoidalari asosida namoyon bo'lgan. Jamiyatda insonlar ma'lum bir qiziqish, ehtiyoj, manfaatlarga ko'ra birlashadilar va o'zaro munosabatda bo'ladilar. Jamiyatda biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar amal qiladi va bu qonunlar insonlar bilan bog'liq bo'ladi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida turli ijtimoiy munosabatlar paydo bo'ladi. Ushbu sohada ijtimoiy munosabatlarni biz ijtimoiy-ekologik munosabatlar deb ataymiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki ijtimoiy-ekologik munosabatlar shakli, mazmuni jihatdan turli-tuman bo'lib, ushbu munosabatlarni tartibga solishda ham keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Ijtimoiy-ekologik munosabatlar yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda oqilona aniqlash o'z navbatida, ushbu munosabatlarni tartibga solish huquqiy mexanizmni ixchamlashtiradi va amalga oshirishga yordam beradi. Tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik-huquqiy munosabatlar;
3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik huquqiy munosabatlar.[1]

Ushbu ekologik-huquqiy munosabatlar yo'nalishlari o'z mazmun mohiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambar-chas bog'liq bo'lib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirlar tizimida tutgan o'rni muamm ularni hal qilishda qo'llaniladigan chora-tadbirlari, uslublari va o'ziga xos xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish – jamiyatda yer, yerosti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish, tabiiy hosilalar va ekologik komplekslarni saqlash, qayta tiklash, atrof muhitning biologik xilma-xilligini ta'minlash bilan bog'liq qoida-talab, chora-tadbirlarning yig'indisi hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrda tabiiy muhitni muhofaza qilish yo'nalishiga katta e'tibor berilib, har bir davlat turli dastur, rejalar va qonunchilik hujjatlarini qabul qilgan.[1]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning davlatchilik shakli va demokratik boshqaruvi nuqtai nazaridan yuridik fanlarning huquqiy jihatlari va ularning amaliyotda qo'llanilishi muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Albatta ushbu muammoni hal qilishda fundamental tadqiqotlar va xalqaro tajribalarga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki barcha huquqiy normalarning manbalari asosan xalqaro konvensiya va huquqiy meyorlarga mos bo'lishi va shular asosida qurilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda malakali kadrlarni tayorlash tizimi umumiy va oliy talim pog'onalarida integratsion formatda ishlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Mirhamidov, O.Omanova «Sharq» nashiryoti T – 2014 yil.
2. "Inson huquqlari", Darslik. Toshkent. "Adolat" 2014 yil.
3. "Pravo cheloveka" Uchebnik - Hrestomatiya. A. X. Saidov. Toshkent.
4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. Mualliflar jamoasi: A.X.Saidov. F. Bakayeva. K. Arslanova va boshqalar. "O'zbekiston" 2010 yil.
5. Kovi S.R. Sem navbikov vbisokoeffektivnbix lyudey. Vozvrat k etike xarakteru. - M.: «Veche, Persey, Astrel», 1998 yil.
6. Sorokotyagin I. N., Masleev A. G. Professionalnaya etika yurista. 3-ye izd., per. i dop. - M.: «Yurayt», 2019 yil.
7. Ismailov B.I. Yuristning kasbiy etikasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi, 2019 yil.